

**LABARATORIYA SHAROITIDA MAGNOLIYA GRANDIFLORA L. NING URUG'
UNUVCHANLIGINI O'RGANISH**

Ibragimov Hikmatillo Rahmatulla o‘g’li

Termiz davlat universiteti magistranti

Tel:(+998937923423) hikmatillohibrokhimov@gmail.com

Annotatsiya: Bu maqolada Magnoliya daraxti urug‘larining labaratoriya sharoitida unuvchanligi o‘rganilgan va tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki magnoliya daraxti urug‘i qobig‘i qattiq bo‘lganligi sababli o‘sish ko‘rsatkichi oddiy sharoitda juda past yani 31% ni tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: Labaratoriya sharoiti, magnolia, petri chashkasi, urug‘ unuvchanligi, termostat, manzarali o‘simliklar.

Аннотация: В данной работе всхожесть семян магнолии изучалась в лабораторных условиях, и результаты исследования показывают, что всхожесть семян магнолии в нормальных условиях очень низкая, 31%, из-за твердой оболочки магнолии. Семена.

Ключевые слова: Лабораторные условия, магнолия, чашка Петри, проращивание семян, термостат, декоративные растения...

Annotation: In this paper, the germination rate of magnolia tree seeds was investigated under laboratory conditions, and the results of the study show that the germination rate of magnolia tree seeds under normal conditions is very low, 31%, due to their hard shell.

Key words: Laboratory conditions, magnolia, petri dish, seed germination, thermostat, decorative plants.

Kirish. Surxondaryo viloyati mamlakatimizning eng janubiy qismida joylashgan. U ayni bir paytda O‘rta Osiyoning ham janubiy qismida joylashgan bo‘lib, uning hududi quruq subtropik iqlimi mintaqaga to‘g‘ri keladi. Viloyat hududini 37.238001 shimoliy kenglik va 67.251384 sharqiy uzoqlik chiziqlari kesib o‘tadi [1]. Qadimdan bu ko‘xna diyor turli xil o‘simlik olamiga juda boy bo‘lgan hamda bugungi kunda ham viloyat hududida turli o‘simliklar, xususan daraxtlarning madaniy holda o‘stirib rivojlantirish ishlari jadal olib borilmoqda. Buning tasdiqi sifatida 2021-yil 30-dekabrdagi O‘zbekiston respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasini aytib o‘tishimiz mumkin. Loyiha doirasida yiliga 200 mln tup daraxt va buta ko‘chatlarini ekish rejalashtirilgan. “Yuksalish” umummilliy harakati O‘zbekistonda daraxtlar sonini oshirishga qaratilgan bu kabi tashabbuslarni qo’llab-quvvatlaydi. Shu maqsadda respublikamizning 6 ta hududida “Bir million daraxt” aksiyasini o’tkazmoqda. [2]

Bundan tashqari bugungi kunda ko‘kalamzorlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan istiqbolli o‘simliklarning morfologik, biologik va o‘ziga xos bo‘lgan ekologik xususiyatlarni o‘rganish ushbu o‘simlikni Termiz shahri iqlim sharoitidagi aholi manziloholarida ko‘paytirishga va ulardan keng foydalanishga imkon beradi [3], [4].

Yuqoridagilarni hisobga olib Termiz sharoitida introdusent o'simliklardan hisoblangan Magnoliya daraxtining o'sish va rivojlanishini o'rganisni maqsad qilib qoydik.

Ishning maqsadi : Magnoliya grandiflora urug' unuvchanligini labaratoriya sharoitida o'rganish.

O'rganilayotga obekt: *Magnoliya grandiflora* – kelib chiqishi Amerika Qo'shma Shtatlarining janubi-sharqi hisoblangan doimiy yashil daraxt. Biz uni ko'pincha magnoliya yoki oddiy magnoliya sifatida taniymiz. Mazkur daraxt ayrim manbalarga ko'ra 30 metrgacha o'sishi mumkin. Barglari katta, uzunligi 20 sm, eni 10 sm gacha ham bo'lishi mumkin bo'lib tuxumsimon shaklga ega. Bu daraxt asosan bahor oylarida gullaydi. Gullarning diametri 30 santimetrgacha, oq rangga ega, shuningdek, juda xushbo'y. [5]

Tadqiqot hududi va usullari : urug' unuvchnligi – o'simlikning biologik va iqtisodiy jihatdan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Unuvchanlik ko'rsatkichlari labaratoriya va dala tajribalarida o'rganiladi. Urug'larning unuvchanlik ko'rsatkichi B.Y.To'xtayev va T.X.Maxkamov metodi asosida amalga oshirildi. Bu metodga ko'ra petri chashkasida distirlangan suv bilan namlangan 2 qavatli filtr qog'oz qo'yiladi va 100 dona o'rganilayotgan o'simlik urug'lari joylashtirilib labaratoriya sharoitida unuvchanlik kuzatish va taqqoslash metodlari bilan uyg'unlikda amalga oshiriladi. Tajribani o'rganish uchun Termiz davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti labaratoriya xonasda amalga oshirildi.

Olingan natijalar: Magnoliya daraxti urug'lari katta hajmli bo'lganligi sababli ularni bir vaqting o'zida bitta petri chashkasida o'rganish imkonsiz. Shu sababdan 100 dona urug' 25 tadan teng qisimlarga bo'linib 4 ta petri idishchalarda olib borildi. Tajriba olib borish jarayonida petri idishiga 2 qavat distirlangan suv bilan namlangan filtr qog'ozlardan foydalanildi hamda labaratoriya termostatida 25°C da o'rganildi. Labaratoriya natijalari 31% ni tashkil etdi.

I-jadval

№	25 dona urug' og'irligi (gramm)	Urug' unumadorligi (dona)							Umumiy
		06.01.2022	13.01.2022	20.01.2022	27.01.2022	03.02.2022	10.02.2022	17.02.2022	
1	1.87	0	1	1	1	2	2	1	9
2	1.90	1	1	2	1	1	1	1	8
3	1.85	1	1	1	1	1	1	1	7
4	1.80	0	1	1	2	1	1	1	7
O'rtacha								31%	

Magnoliya o'simligi urug'larining past unumadorligi , bitta meva gumbazida 30-50 tagacha urug'lar hosil bo'lishi yani urug'larning umumiyligi soni ko'pligi bilan bog'liq. Bularning oraida yaxshi yetilmagan urug'lar ham mavjud bo'ladi.

Xulosa :

1. Mongoliya daraxti urug'lari qattiq qobiq bilan qoplanganligi sababli oddiy sharoitda o'stirish past natija beradi.
2. Urug'larni unuvchanligini oshirish maqsadida maxsus eritalar bilan ishlov berish urug' unuvchanligiga ijobiy tasir o'tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ro'ziyev A.N. Surxondaryo viloyati. – Toshkent: Jayhun, 1996. – 116 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46-son Farmoniga asosan «Yashil makon» umummilliy loyihasi doirasida ko'chatlarni ekish ishlarini.
3. Ёзиев Л.Х. Оценка перспективности древесных растений по результатам их интродукции в Южный Узбекистан//Узб.биол.журн. Ташкент, 1995.вып. 2-3. С.25-27.
4. Ёзиев Л.Х. Опыт интродукции древесных растений в Южный Узбекистан. Ташкент: Фан, 2001. 210 с.
5. <https://www.jardineriaon.com/uz/magnoliya-grandiflora.html>